



## SHAROF RASHIDOV – AN IMMORTAL SYMBOL OF HONOR

**Bobomurod Tukhtasinov**

*Acting Associate Professor, PhD*

*Namangan State University*

*Namangan, Uzbekistan*

*E-mail: [bobomurod.tukhtasinov@bk.ru](mailto:bobomurod.tukhtasinov@bk.ru)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** "Red Uzbekistan", "Uzbek affairs", "cotton affairs", "great agha industry", "Hero", outstanding statesman.

**Received:** 25.05.25

**Accepted:** 27.05.25

**Published:** 29.05.25

**Abstract:** This article discusses the controversial and complex life and work of Sharof Rashidov, a statesman and public figure who left an important and indelible mark on the history of Uzbek statehood in the 20th century.

## SHAROF RASHIDOV – O'CHMAS SHARAF TIMSOLI

**Bobomurod To'xtasinov**

*dotsenti v.b., PhD*

*Namangan davlat universiteti*

*Namangan, O'zbekiston*

*E-mail: [bobomurod.tukhtasinov@bk.ru](mailto:bobomurod.tukhtasinov@bk.ru)*

### МАҚОЛА HAQIDA

**Kalit so'zlar:** "Qizil O'zbekiston", "o'zbeklar ishi", "paxta ishi", "ulug' og'achilik", "Qahrim", atoqli davlat arbobi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asr O'zbek davlatchiligi tarixida muhim va o'chmas iz qoldirgan davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidovning ziddiyatli va murakkab hayoti va faoliyati xususida so'z yuritilgan.

## ШАРОФ РАШИДОВ – БЕССМЕРТНЫЙ СИМВОЛ ЧЕСТИ

**Бобомурод Тухтасинов**

*И.о. доцент, PhD*

*Наманганского государственного университета*

*Наманган, Узбекистан*

*E-mail: [bobomurod.tukhtasinov@bk.ru](mailto:bobomurod.tukhtasinov@bk.ru)*

### О СТАТЬЕ

<b>Ключевые</b> Узбекистан», «хлопковые	<b>слова:</b> «узбекские дела», «великая	<b>«Красный</b> дела», противоречивая ага	<b>Аннотация:</b> В статье рассматривается и сложная жизнь и деятельность Шарофа Рашидова —
-----------------------------------------------	------------------------------------------------	-------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------

индустрия», «Герой», государственный деятель.

видный государственного и общественного деятеля, оставившего важный и неизгладимый след в истории узбекской государственности в XX веке.

## Kirish

Yurtimizning XX asrdagi tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, bu davr O‘zbek davlatchiligi birinchi navbatda o‘zbek xalqi uchun judayam murakkab va og‘ir davr bo‘lganligini ko‘ramiz. Albatta bunga bunga birinchi sabab qilib Rossiya mustamlakachiligi va Sobiq komunistik tuzumni adolatsizlik va ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan boshqaruvini keltirishimiz mumkin. Lekin mana shunday og‘ir davrlarda ham bu yurtda o‘z ona xalqi va mamlakati uchun borini bergen va o‘z yurti erkinligi va farovonligi yo‘lida ulug‘jasoratlar ko‘rsatgan chinkam yurt qahramonlari ham bisyordir. Shunday shaxslardan biri atoqli davlat va siyosat arbobi, taniqli adib, yozuvchi Sharof Rashidovich Rashidovdir.

### Asosiy qism

Sharof Rashidov 1917-yilning 5-noyabrda Jizzaxda dehqon oilasida tug‘ilgan. Bo‘lajak davlat arbobi dastlabki ta’limni Narimonov nomidagi o‘rta maktabda oladi. Shundan so‘ng Jizzaxdagi pedagogika texnikumida (1934), Samarqand davlat universitetlarida 1941-yilda oliy ma’lumotni oladi. Sharof Rashidov o‘z faoliyatini muallim va muxbir sifatida boshlaydi. 1938-1941-yillarda Samarqand viloyatining “Lenin yo‘li” gazetasida ishlaydi. 1941-1942-yillarda II-jahon urushida qatnashadi, frontdan qaytgach, 1944-1947-yillarda Samarqand viloyat partiya tashkilotining kotibi bo‘lib faoliyat ko‘rsatadi. 1947-1949-yillarda “Qizil O‘zbekiston” (“O‘zbekiston ovozi”) gazetasiga muharrirlik qiladi. 1949-1950-yillarda O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining raisi, 1950-1959-yillarda O‘zbekiston Oliy Kengashining rayosatining raisi, 1959-1983-yillarda O‘zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi bo‘lib ishlaydi.

Hayratlanarlisi shuki uning tarjimai holiga nazar tashlaydigan bo‘lsak: 25 yoshida Kompartiya viloyat kotibi, 30 yoshida “Qizil O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri, 32 yoshida Respublika yozuvchilar uyushmasining raisi, 33 yoshida O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumining raisi, 42 yoshida Respublika Komunistik partiyasining birinchi rahbarligiga ko‘tarildi va bu lavozimda qariyb chorak asr mobaynida muttasil ishlaganini ko‘ramiz. Albatta, bu raqamlar tagida murakkab va iztirobli taqdir yotibdi.

Shu o‘rinda Birinchi Prezident I.A.Karimovning bu vatan fidoyisi haqida bildirgan fikrlari diqqatga sazovordir: “Bu murakkab shaxs, bir tarafdan, milliy manfaatlarni o‘ylashga, ikkinchi tarafdan, markazdan kelgan, tub manfaatlarga zid buyruqlarni hayotga tadbiq etishga majbur bo‘lganini unutmasligimiz zarur. Uning umri sandon bilan bolg‘a o‘rtasiga qo‘yilgan edi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi”[1].

Sharof Rashidov to‘g‘risida juda ko‘p yozilgan. Ammo bu yozilganlarning barchasini adolat va haqiqat tarozisiga solib baho berish kerak. Chunki bu yozma manbalarning hammasini ham xolislik bilan yozilgan deb bo‘lmaydi. Ularning kattagina qismi Sharof Rashidovga nisbatan g‘arazlik, alamzadalik va ichi qoralik bilan ehtiroslar ta’sirida yozilgan.

O‘tmishga noto‘g‘ri munosabat, tarixiy shaxslar faoliyatiga bir yoqlama baho berish, yuqori lavozimdagи rahbalarning kayfiyati va manfaatparastligiga tarix haqiqatini qurban qilish hamisha katta va kutilmagan fojealarga olib keladi. Bu ayniqsa ulug‘ allomalar va siyosiy arboblar faoliyatini o‘rganish, o‘sha davr ular yashab o‘tgan ijtimoiy-siyosiy muhit imkoniyatlarini, hukmron siyosat ta’sirini, tarixiy muhitni soxtalashtirishda yaqqol ko‘rinadi. Sharof Rashidov faoliyatini yoritishda ham yuqoridagi holatlarni chetlab o‘tilmaganini ko‘rishamiz mumkin. Xususan, Sovet davlatining so‘nggi yillarida ruslar uchun Sharof Rashidov nomi korrupsiya va Sovet ittifoqining ma’muriy-buyruqbozlik boshqaruvining bosh timsoliga aylanib qoldi. Sharof Rashidov vafotidan so‘ng, markaz o‘ziga xos “o‘zbeklar ishi”, “paxta ishi” kabi uydirmalarni o‘ylab topdilar va go‘yoki sobiq Rashidov boshchiligidagi hukumat va butun o‘zbek xalqiga minglab tuhmatlar yog‘dirishdi. O‘zbekistonga Telman Gdlyan va Nikolay Ivanov boshchiligidagi go‘yoki soxta demokratiyani eksport qiluvchi kadrlar to‘dasi yopirildi. Buning natijasida O‘zbekiston hukumatida olib borilgan tozalashdan O‘zbekiston SSRning deyarli barcha rahbarlaridan tortib oddiy kalxozchilargacha nishonga tushishdi. Sobiq ittifoqning mustamlakachilik, zo‘ravonlikka asoslangan qatag‘on siyosati Sharof Rashidovni ham chetlab o‘tmadi. Bu kabi noxolislikka albatta mustaqilligimiz sharofati bilan chek qo‘yildi, lekin shuni ta’kidlashimiz joizki Sharof Rashidov faoliyatiga doir shunday rad qilib bo‘lmaydigan faktlarni ko‘rishimiz mumkinki, bu inson chinakam ma’noda vatanparvar yurt farzandi bo‘lganini ko‘ramiz.

Xo‘sish, Rashidov qanday qilib uzoq muddat ishladi? Har holda, ayrimlar aytganidek, laganbardorlik, markazga sig‘inish tufayli emas! Bunday odad uning tabiatiga va xarakteriga mutlaqo to‘g‘ri kelmasdi. Rashidov vaziyatni to‘g‘ri xulosa chiqara oladigan, voqealar borishini oldindan sezadigan, unga moslashadigan diplomat va yuksak muomala madaniyatiga ega shaxs bo‘lganligi sir emas. U o‘z qadr-qimmatini yaxshi biladigan, g‘oyat oriyatli kishi bo‘lganligini ko‘pchilik gapiradi.

Sharof Rashidov siyosatidagi “baynalmilal”lik, rus xalqiga keragidan ortiq baho berish, “ulug‘ og‘achilik” sifati uning markazga tobeligidan emas, balki o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy muhiti qobig‘idan chiqolmaslik, o‘zining katta-katta maqsadlariga mamlakat rahbarining kayfiyatiga mos ravishda ish tutish, murosaga boorish yo‘li bilan erishish muddaosidan kelib chiqqan. Har qanday maqtovu arzon qarsaklarga o‘ch bo‘lgan SSSR rahbarlariga ana shundaymuomalada bo‘lgan Rashidov O‘zbekiston taraqqiyoti uchun ulardan, mamlakat hokimiyatidan ustalik bilan

foydalangan. U faqat shu yo‘l bilangina yurt va xalq farovonligini, qisman bo‘lsada, oshirish mumkinligini yaxshi bilgan.

Sharof Rashidov O‘zbekistonning birinchi rahbari bo‘lib ishlagan vaqtida nafaqat Respublikaning balki butun Sobiq ittifoq davlatlarida ahvol juda murakkab va tahlikali bo‘lganligini ko‘ramiz. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi muxbir a’zosi Haydar Po‘latov ushbu davrni hisobga olib Rashidov faoliyatiga quyidagicha baho beradi:

“O‘ta markazlashgan siyosiy mexanizmning shiddatli harakatini to‘xtatish, uni boshqa izga solish hech kimning qo‘lidan kelmas edi. Bunday qilishga uringan har qanday arbobni mayjud siyosiy mashina majaqlab tashlar edi. Demak, Rashidov masalasi uning shaxsiyati doirasidagi masala emas. Balki turg‘unlik davri ehtiyoji bilan vujudga kelgan siyosiy hodisadir”[2].

Sharof Rashidov zamondoshlaridan yana biri, M.Gorbachyovning yordamchisi va KPSS MK bo‘lim boshlig‘i lavozimida ishlagan V.Boldin Rashidov haqida quyidagilarni xotirlaydi: “Hokimiyat tepasiga Andropovning kelishi bilan, Gorbachyov shu zahoti o‘ziga erk berib yubordi. O‘znining muvaffaqiyatlarini ko‘z-ko‘z qilishni boshladi. Eslayman, Rashidov paxta topshirishni oshirishi uchun, Gorbachyov qanday qilib O‘zbekiston rahbarining qo‘llarini qayiltirgani. Rashidov tushuntirishga, ko‘ndirishga harakat qilardi: “Bizda yomg‘ir bilan qor yog‘di, hammasi muzlab qolgan. Agar shu ahvolda ham terib oladigan bo‘lsak, buni quritishimiz uchun yarim yil ketadi”. Gorbachyov esa: “Baribir ko‘proq topshiringlar”[3].

### Tahlil va natijalar

Yuqoridagi fikrlardan Sharof Rashidov zimmasidagi yukning naqadar og‘ir bo‘lganligini his qilish mumkindir. Eng og‘ir sharoitlarda ham Rashidov o‘z xalqiga farzandlik burchini ado etdi. Markazdan kelgan buyruqlarni yumshatishga, Markaziy hokimiyatdan yurt obodonchiligi, farovonligi uchun butun choralar bilan foydalanishga harakat etardi. XX asr 2-yarmida O‘zbekiston SSRda amalga oshirilgan o‘nlab yirik tadbirlarni haqli ravishda Sharof Rashidov nomi bilan bog‘lashimiz mumkin. Xususan, XX asr 60-80-yillarda bunyod etilgan ko‘plab sanoat korxonalari va yirik inshootlar, Mirzacho‘l, Qarshi, Jizzax, Yozyovon, Surxon-Sherobod cho‘llarining o‘zlashtirtilishi va bu orqali cho‘l-u biyobonlarning bog‘-u rog‘larga aylanishi, yuz minglab yurtdoshlarimizning o‘z rizq-ro‘zlarini topishlari shular jumlasidandir. Sh.Rashidov rahbarligi davrida O‘zbekistonda Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Yangiyer va Guliston kabi yirik shaharlar. O‘nlab boshqa shahar va tumanlar barpo etildi, 1966-yilgi Toshkent zilzilasi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha katta amaliy ishlarni bajardi.

Sharof Rashidovning davlat va jamoat arbobi sifatida o‘zbek xalqini dunyoga tanitishda xizmatlari beqiyosdir. Rashidov yurtini dunyo miqyosiga ko‘tarish niyatida butun imkoniyatni ishga solgan. Yetarli bo‘lsa Respublika mablag‘idan, yetmasa har qanday yo‘l bilan Ittifoq mablag‘i hisobidan turli xalqaro anjumanlarni uyushtirgan, ularga bevosita o‘zi rahbarlik qilgan.

Jahonda “Toshkent ruhi” sifatida 1966-yilda vujudga kelgan mashhur tushuncha aynan Sh.Rashidov nomi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu Toshkentda tuzilgan xalqaro harakatdir. Xususan, Rashidov Osiyo va Afrika yozuvchilari hamkorligi harakatining, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari xalqaro kinofestivalining, 1966-yil Toshkentda imzolangan Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi tibchlik sulhining tashabbuskoridir. Ana shu anjumanlarning hammasida o‘zbek xalqi va O‘zbekiston ulug‘langan.

Bular hali hammasi emas, Sharof Rashidov Toshkentda dunyoda eng qulay va go‘zal metropoliten qurish g‘oyasining ijodkori va tashkilotchisidir. “Xalq so‘zi” ro‘znomasida Qoraqalpog‘iston viloyati partiya qo‘mitasining sobiq birinchi kotibi Qallibek Kamolov o‘z esdaliklarida yozishiga qaraganda, Sharof Rashidov Toshkent metropoliteni qurilishi masalasi bo‘yicha KPSS MQning bosh kotibi L.I.Brejnev qabulida turli paytlarda va holatlarda olti marta kirgan ekan. Yettinchi marta kirganida “Sen, Rashidov, metroing bilan jonimga tegding” deb hujjat ustiga qo‘1 qo‘yib bergen ekan. Mamlakat “ota”sining xonasidan xo‘rsinib “Nihoyat hal bo‘ldi” deb chiqqan Rashidov holatini, dard aralash sevinchini Qallibek Kamolov alohida takidlaydi [4]. Bunday iztirobli holatlar Sharof Rashidov hayotida tez-tez bo‘lib turardi. Rashidov hamma qatori bir odam edi. Syezd minbaridan aytilganidek, unda na sehrgarlik, na favqulodda jodugarlik yo‘q edi. Uning butun boyligi o‘ta madaniyatatligi, muomalada kamtarinligi, har qanday chigal va og‘ir vaziyatda ham qiyofasini o‘zgartirmay bir xilda turishida edi. U kattayu kichikka birday edi. O‘zbekona hurmat va tavoze, arbobga xos qat’iyat va talabchanlik qorishib ketgan shaxs edi.

Sharof Rashidov yetuk adib va yozuvchi sifatida ham adabiyotimizda muhim iz qoldirgan. Uning adabiy ijodi asosan XX asrning 30-yillari ikkinchi yarmidan boshlangan bo‘lib, dastlab she’riyatda qalam tebratgan. Uning birinchi she’riy to‘plami “Samarqand kuylari” nomi bilan bosingan. So‘ng esa “O‘lkam”, “Orzuyimiz” (1939) kabi she’rlari chop etilgan. Ulug‘ Vatan urushi davrida fashizmga qarshi g‘alabaga yetaklovchi she’rlar yozib, 1945-yilda “Qahrim” nomi bilan to‘plam sifatida chop ettiradi . U ayni chog‘da adabiyotshunos va munaqqid sifatida ham tebratgan edi. U jang maydonlarida:

“Agar jangdan qaytsam orqamga,

La’nat o‘qing, yashashim bekor”, degan aht bilan ona-Vatan dushmanlariga, fashizmga qarshi qahr-g‘azab tuyg‘ularini to‘kib sochadi.

Sh.Rashidov maqolanavis – publisistlikdan kamolga yetgan adib darajasiga ko‘tarildi. Shuning uchun ham uning badiiy ijodi namunalarida bu ruh yetakchi o‘rinni egallaydi. Adibning katta nasr namunalari bo‘lgan “G‘oliblar” (1951), “Bo‘rondan kuchli” (1958), “Qudratli to‘lqin” (1964) romanlarida urushdan keyingi O‘zbekiston xalqini, tiklanish yillaridagi mehnat jasoratlari badiiy ifodasini topgan. Ijodkorning “Kashmir qo‘shig‘i” (1956), “Komde va Mudan” kabi lirk

qissalarida an'anaviy Sharq dostonchiligi uslubida bitilgan bo'lib, yoshlik, bahor, go'zal hayot nashidasi madhiga bag'ishlangandir. Adib hayotining so'nggi yillarida yaratgan "Dil amri bilan" (1982) qissasi Vatan urushi yillarida Belarus zaminida kechgan jang manzaralari, turl millat jangchilarining g'alaba yo'lida olib borgan hayot-mamot kurashi tasviriga bag'ishlangan.

Sharof Rashidovning o'ziga xos ijodkor bo'lganligi va butun umrini qalam bilan dardlashib o'tkazganligini uning qisqacha tarjimai holining o'zi ham ko'rsatib ko'rsatib turibti. Dastlab Samarqand viloyatining "Lenin yo'li", so'ngra "Qizil O'zbekiston"dek Respublikaning yetakchi ro'znomasiga muharrir bo'lish va nihoyat Respublika Yozuvchilarining uyushmasi raislariga saylanishlik har qanday "dongdor tanqidchi yozuvchi" larga ham nasib etmasa kerak.

Atoqli davlat va siyosat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidov faoliyatiga baho berganda tarixiy haqiqat o'lchovidan chiqmaslik lozim. Rashidov tug'ilgan kunning 75 yilligini munosib nishonlash xususidagi "Xalq mehri abadiydir", deb nomlangan ochiq xatda quyidagi haq jumlalarni o'qiyimiz: "Tabiiyki, - Sharof Rashidov – davr farzandi. Har bir shaxsga baho berganda, albatta, o'sha davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitlaridan kelib chiqib ish tutish lozim! Har bir davrning o'z o'lchov toshi borligini unutish adolatsizlik bolur edi! Sharof Rashidovning alamzada muxoliflarining uning har bir xayrli qadamidan ana shunday adolatsizlik nuqsini topishga urindilar"

Xuddi shunday Sh.Rashidov vafot etgach uning yurt uchun xizmatlari unutildi, xotirasi oyoqosti qilindi va "Sharof Rashidovchilik" atamasi o'ylab topildi. Haqiqat egilsa egiladiki, sinmaydi. O'zbekiston xalqi Sharof Rashidov o'zining munosib farzandi ekanligini isbotlab oldi. Haqiqatning ro'yobga chiqishida xalqimizning yana bir sodiq va zabardast farzandi, birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning xizmatlari katta bo'ldi. Aynan Islom Karimovning mardligi, jasorati, g'ayrat-shijoati Markazdag'i siyosiy qimorbozlar bilan oramizdan chiqqan munofiqlar, mansabparastlar to'qib chiqargan nayranglardan ustunlik qildi. Xalqimizning otashqalb farzandi, yirik davlat va jamoat arbobi Sh.Rashidovning nomi oqlandi va shu bilan birga o'zbek xalqining izzat-nafsi, milliy g'ururi ham himoya qilindi.

1992-yil noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning bevosita tashabbusi bilan Sharof Rashidov tavalludining 75 yillik tantanalari yurtimizda keng nishonlandi va tarix adolati qaror topdi. Islom Karimov bunday degan edi: "Tinch yotganni go'ridan olib, ruhini chirqiratgan nobakorlarning ayb-u xatolarini tuzatib, endi shu insonning hurmatini joyiga qo'yaylik". Agar oliyadolat mavjud bo'lsa, bizning e'tiqodimizga ko'ra xalq fikri oliy haqiqatdir, xuddi ana shuadolat, xuddi ana shu haqiqat Sharof Rashidov nomi bilan bog'liq bo'lgan, jumhuriyat hayotidagi o'zgarishlarda katta ahamiyatga ega bo'lgan ulkan o'zgarishlarni rad eta olmaydi.

Sharof Rashidov tavalludining 75 yilligini nishonlashdan maqsad: Avvalambor, bu ulug‘ zotning o‘ttiz yildan ko‘proq O‘zbekistonimizga, xalqimizga qilgan xizmatini ulug‘lash, nomini avlodlar uchun tiklashdir”[5].

Bu kabi hayrli ishlar bugungi kunda ham davom etmoqda, jumladan, joriy 2017-yil 27-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100-yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi [6] qarorni imzoladi.

“Respublikamizni juda murakkab va og‘ir yillarda boshqarib, yurtimiz taraqqiyoti yo‘lida fidokorona xizmat qilgan, ijtimoiy va ijodiy faoliyat bilan milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga katta hissa qo‘shtan atoqli davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidovning yorqin xotirasini ulug‘lash hamda tavalludining 100-yilligini munosib nishonlash maqsadida” – deyilgan qaror matnida.

### Xulosa

Xususan, Oliy Majlis Senatining qaroriga muvofiq Jizzax viloyatining Jizzax tumaniga “Sharof Rashidov” nomi beriladi va u yerda uning xotirasiga bag‘ishlangan yodgorlik majmuasi va haykali quriladi. Shuningdek, yosh avlodni Sharof rashidovning hayoti bilan yaqindan tanishtirish uchun Jizzax shahrida uning memorial uy-muzeyini tashkil etish va muzey hududini obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Undan tashqari Sharof Rashidov nomi bilan bog‘liq bir necha yozma adabiyotlar chop etiladi. Ular orasida davlat arbobi asarlaridan “Saylanma” kitobi, Sharof Rashidov hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan “Xalqimizning otashqalb farzandi” nomli xotira kitobi chop etiladi. Shuningdek, Sharof Rashidovning hayoti va ijtimoiy-ijodiy faoliyatiga haqida hujjatli film yaratiladi. 2017-yil noyabr oyining birinchi o‘n kunligida Jizzax va Toshkent shaharlarida Sharof Rashidov tavalludining 100-yilligiga bag‘ishlangan xotira kechasini o‘tkaziladi. Sharof Rashidov 100-yilligini nishonlash bilan bog‘liq tadbirlar O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va boshqa OAVlar tomonidan keng yoritib boriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. I.A.Karimov. “Xalqimizning otashqalb farzandi”. T.:“O‘zbekiston”, 1992.
2. N. Jo‘rayev, Sh. Karimov “O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida” 2-jild. T.: “Sharq”, 2011.
3. Коммерсантъ - Власть Аналит еженедельник Изд. дома "Коммерсантъ". 2001, № 15 (417). — 2001.
4. “Халқ сўзи” газетаси, 1992 йил 28 октябр.
5. I.A.Karimov. O‘zbekiston: “Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura” – Т.: “O‘zbekiston”, 1 jild, 1996.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risi”da PQ-2854-sonli qarori. 27.03.2017. <https://lex.uz/docs/-4921779>